



“AXBOROTLASHGAN JAMIYAT” VA “KIBERXAVFSIZLIK” TUSHUNCHALARINING SIYOSIY KATEGORIAL TAHLILI

DUSBOYEV Asliddin Turg'unovich

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrası sikl boshlig'i, dotsent

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola globallasuv sharoitida axborotlashgan jamiyatda turli axborot oqimi oqibatida sodir etilayotgan kiberjinoatchilikka qarshi kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalarini keng o'rganish va ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: globallasuv, axborot, texnologiya, kiberjinoyat, kiberxavfsizlik, shaxs, jamiyat, tashkilot, xavfsizlik, xaker, kommunikatsiya, inqilob.

Аннотация. Данная статья направлена на глубокое изучение и научный анализ вопросов обеспечения кибербезопасности против киберпреступности, совершающих в различных информационных потоках, в условиях глобализации в итнформационном обществе.

Ключевые слова: глобализация, информация, технология, киберпреступность, кибербезопасность, личность, общество, предприятие, безопасность, хаккер, коммуникация, революция.

Annotation. This scientific article is aimed at in-depth study and scientific analysis of the issues of cybersecurity against cybercrime, which exist in various information flows, in the context of globalization in the information society.

Keywords: globalization, information, technology, cybercrime, cybersecurity, personality, society, enterprise, security, hacker, communication, revolution.

Davlatimiz rahbari boshchiligida yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Ayni vaqtda jamiyatni axborotlashtirish, insoniyatga qulayliklar yaratish maqsadida axborot texnologiyasi kirib bormagan biron bir soha deyarli qolmadi va barcha sohalarda axborotlashtirish jarayonlari bo'yicha islohotlar shiddat bilan davom etayotganligini kuzatamiz. Bu jarayonda qulayliklar va yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda og'irimizni yengil qilayotgan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari orqali insoniyat tafakkuriga yo'naltirilayotgan kiberxavflarining mavjudligi barchamizni sergak va ogoh bo'lishga, kiberxavflardan himoyalaniş zaruriyati borligini ifodalaydi.



Bugun barchamizning hayot tarzimizni o'zgartirayotgan masala axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasida amalga oshirilayotgan taraqqiyot jarayonidir: qanday biznes qilish, mablag' topish va daromad orttirish, zamonaviy ta'lim olish va o'rganish, ilmiy izlanish, tadqiqotlar o'tkazish, qanday ishlar va qanday zavq olish, tadbirkorlik qilish – bularning barchasi zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sirida o'zgarib bormoqda. Bugun axborotlashgan jamiyat insonlarning o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatmoqda, balki an'anaviy tashkiliy tuzilmalarni yanada moslashishi va markazlashmagan, tarqoq bo'lishini talab etmoqda.

Axborotlashgan jamiyat – ishchilarning ko'pchiligi axborotni, ayniqsa uning eng yuqori shakli – bilimni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanadigan jamiyat [1].

Axborotlashgan jamiyat – bu zamonaviy xalqlar jamiyatlarida, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyin axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng qo'llanilishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan keng atama [1]. Tushunarliroq aytganda, axborotlashgan jamiyat – bu axborotni yaratish, tarqatish va manipulyatsiya qilish eng muhim iqtisodiy va madaniy faoliyatga aylangan jamiyat. Axborotlashgan jamiyatda iqtisodiyot asosi sanoat yoki agrar jamiyatlarga qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin. Axborotlashgan jamiyatining negizini ilgorigidek stanoklar yoki dastgoxlar emas, balki telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarini tashkil etadi.

Axborot jamiyati tushunchasi asrimizning eng dolzarb fenomenlaridan biri bo'lib, ko'plab mutaxassislar o'z ishlarida bu tushunchaga o'z tavsiflarini berishgan [2].

Quyida bularning eng ommaboplarini ko'rib keltirishimiz mumkin:

axborotlashgan jamiyat tushunchasi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'liq qo'llanilgan va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning omili sifatida kundalik hayotning bir qismi bo'lgan mamlakat yoki mintaqani nazarda tutadi [3].

axborotlashgan jamiyat – bu axborotni yaratish, tarqatish, foydalanish, birlashtirish va manipulyatsiya qilish muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy faoliyat bo'lgan jamiyat [4].



axborotlashgan jamiyat shunday jamiyatki, unda asosiy mahsulot yoki boshqa mahsulotlar uchun zaruriy shart axborot bo'ladir. Aslida, axborot jamiyatida ishchilarning natijalari va tashkilotlarning muvaffaqiyati ularning axborotdan foydalanish qobiliyatiga bog'liq [5].

axborotlashgan jamiyat – bu axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir. Ushbu jamiyatning diqqat markazida axborot bilimiga ta'sir qiluvchi element sifatida ko'riladi [6].

axborotlashgan jamiyat – bu asosiy drayverlari raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'lgan postindustrial jamiyat [7].

axborotlashgan jamiyat – aksariyat fuqarolarning kundalik hayotida va ish joylarida yuqori darajadagi axborot intensivligi bilan ajralib turadigan jamiyat: bu jamiyatda shaxsiy, ijtimoiy, ta'lim va biznes faoliyatining keng doirasi uchun umumiy yoki mos keluvchi texnologiyalardan foydalanish hamda masofadan qat'iy nazar joylar o'rtasida raqamli ma'lumotlarni tezlik bilan uzatish, qabul qilish va almashish imkoniyati mavjud bo'ladir [8].

Sanoatlashgan jamiyatga nisbatan axborotlashgan jamiyatning farqini quyidagicha izohlash mumkin:

ilmiy-texnikaviy axborotlarning tovar sifatida qabul qilinishi;

asosiy e'tibor ish o'rinlarini butlashda axborot xodimlari bilan ta'minlashga qaratilishi;

asosiy ish hajmini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirilishi;

xodimlar o'rtasida axborot-texnologiyalari yordamida ma'lumot almashish madaniyatini shakllanishiga qaratilganligi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yangi zamonaviy avlod bilan ta'minlanishi, yaratilishi va h.k.

Manbalarda "Axborotlashgan jamiyat" atamasi garchi kompyuterlashtirish keng tarqalib, axborot va raqamli texnologiyalar faol rivojlana boshlagan paytda qo'llanila boshlangan bo'lsada, 1940- yillarda kibernetikaning paydo bo'lishi bilan "axborot jamiyati" tushunchasi paydo bo'lgan edi. Bu tushuncha amerikalik olimlar K.Shennon, N.Wiener, D. fon Neumann, ingliz mutafakkiri va kriptografi A.Tyuring, rus matematigi A.N.Kolmogorov kabi olimlarning nomlari bilan bog'liq. "Axborotlashgan jamiyat"



atamasining yaponcha versiyasi 1961- yilda Kisho Kurokava va Tadao Umesao o'rtasidagi suhbatda paydo bo'lgan. Keyinchalik bu atama T.Umesao va F.Machlup asarlarida qo'llanilgan bo'lib, ular deyarli bir vaqtda – Yaponiya va AQSHda paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. 1992- yildan boshlab bu atama G'arb davlatlari tomonidan qo'llanila boshlandi, masalan, AQSHda “Milliy global axborot infratuzilmasi” tushunchasi Milliy fan fondining mashhur konferensiyasi va undagi Bill Klinton va Albert Gorning mashhur ma'ruzalaridan so'ng kiritildi. Axborot jamiyati konsepsiyasi Yevropada axborot jamiyati bo'yicha eng obro'li ekspertlardan biri Martin Bangemann boshchiligidagi Yevropa Komissiyasining axborotlashgan jamiyat dasturlari bo'yicha ekspert guruhi faoliyatidan kelib chiqqan [9].

Jeyms Martinning fikricha esa, axborot jamiyati deganda birinchi navbatda G'arbda vujudga kelgan “rivojlangan postindustrial jamiyat” tushuniladi. Uning fikricha, axborot jamiyati birinchi navbatda 1960–1970- yillarda postindustrial jamiyat shakllangan mamlakatlarda – Yaponiya, AQSH va G'arbiy Yevropada tashkil etilgani bejiz emas.

Jeyms Martin quyidagi mezonlar bo'yicha axborot jamiyatining asosiy xususiyatlarini aniqlash va shakllantirishga harakat qildi:

texnologik mezon: ishlab chiqarishda, muassasalarda, ta'lim tizimida va kundalik hayotda keng qo'llaniladigan axborot texnologiyalari asosiy omil hisoblanadi;

ijtimoiy mezon: axborot hayot sifatini o'zgartirish uchun muhim stimulyator vazifasini bajaradi, axborotdan keng foydalanish imkoniyati bilan “axborot ongini” shakllantiradi va tasdiqlaydi;

iqtisodiy mezon: axborot resurs, xizmat, mahsulot, qo'shilgan qiymat manbai va bandlik sifatida iqtisodiyotning asosiy omili hisoblanadi;

siyosiy mezon: aholining turli tabaqalari va ijtimoiy qatlamlari o'rtasida o'sib borayotgan ishtirok va konsensus bilan tavsiflangan siyosiy jarayonga olib keladigan axborot erkinligi;

madaniy mezon: shaxs va umuman jamiyat taraqqiyoti manfaatlari yo'lida axborot qadriyatlarini o'rnatishga ko'maklashish orqali axborotning madaniy qiymatini tan olish [10].

Tashkilot, jamiyat va shaxs hayotida hamisha axborotlar muhim o‘rin tutadi. Insoniyatda shunday psixologik xususiyat borki, u doim yangi-yangi narsalarga qiziqadi va intiladi, shu bois insoniyat ma’lumotlarini to‘plash, umumlashtirish, tahlil qilish, axborot olish va uzatish vositalarining rivojlanish jarayoni bir maromda bo‘lmaganligi sababli axborot sohasida turli inqiloblar ham yuz berib kelayotganligini kuzatamiz.

Shu o‘rinda axborotlashgan jamiyatda insonlar og‘irini yengil qilish maqsadida yaratilayotgan qulayliklar rivojlanib borayotganligini aytish joiz, bu jarayonda axborot sohasida davlat va jamiyatning keng qulaylik va imkoniyatlarini ta’minlab bermoqda. Shuni ham inobatga olish lozimki bu qulayliklar va imkoniyatlardan ayrim o‘z manfaatlarini ko‘zlayotgan shaxslar va tashkilotlar tomonidan axborot olamida turli ko‘rinishdagi kibertahdidlar, kiberjinoyatchilik harakatlari va kiberhujumlar amalga oshirilmoqda. Shu bois, bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib ulgurgan axborot-kommunikatsiya va ijtimoiy sohalarda avj olayotgan kibertahdid va kiberjinoyatchilik masalasi barchaning e’tiborini ogohlikka chaqirmoqda.

Kibertahdid – kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar majmui [11].

Kiberjinoyatchilik – axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi [11].

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi paytlarda kibertahdid va kiberjinoyatlarning yangidan-yangi o‘ta destruktiv (buzg‘unchi) turlari ommalashishi va yanada global tus olishi kuzatilmoqda. Jahonda sodir etilayotgan jinoyatlar ichida kibertahdid va kiberjinoyatchilik shkalasi yuqori pog‘onalarga ko‘tarilgan. Bu xatti-harakatlar alohida shaxs yoki guruhlar tomonidan boylik orttirish yoki boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab ijtimoiy tarmoq va mesenjerlari (axborot texnologiyalari, kompyuter dasturlari) orqali sodir etilayotgan o‘ta xavfli tahdid va jinoyat sanaladi.

Yanada tushunarli qilib aytganda, kibertahdid va kiberjinoyatlarning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi global internet tarmoqlari orqali amalga oshirilishi avj olib bormoqda. Bu turdagi jinoyatlar xakerlar tomonidan kompyuter dasturlari orqali uzoq mintaqada yoki

davlatda joylashgan muhim axborot-infratuzilma obektlari (idora, tashkilot yoki biror shaxsning mablag'ini o'zlashtirish (o'marish) orqali sodir etilmoqda. Dunyo hamjamiyatini katta xavotirga solayotgan muhim masala hozirgi vaqtda xakerlar tomonidan amalga oshirilayotgan kiberxujum va kiberjinoyatlar aynan muhim axborot-infratuzilma obektlarida sodir etilayotganidadir.

Muhim axborot infratuzilmasi obyektlari – davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko'rsatish, mudofaa, davlat xavfsizligini, huquq-tartibotni ta'minlash, yoqilg'i-energetika majmui (atom energetikasi), kimyo, neft-kimyo tarmoqlari, metallurgiya, suvdan foydalanish va suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish, bank-moliya tizimi, transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, strategik ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash sohasida, ishlab chiqarish sohasida, shuningdek iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida va ijtimoiy sohada qo'llaniladigan axborotlashtirish tizimlari [11].

Xakerlarning nishoniga aylangan yuqorida nomlari keltirilgan muhim axborot-infratuzilma obektlariga yo'naltirilgan g'ayriijinoiy harakatlar keyingi vaqtlarda shiddat bilan ortib borayotganligi bois, ushbu kiberhujum va kiberjinoyatchiliklarga qarshi kiberxavfsizlikni kuchaytirish va ta'minlash sodir etilishi mumkin bo'lgan turli kibertahdidlarning oldini olish va unga qarshi kurashish bugungi kunda barcha davlat va tashkilotlarning muhim vazifasi hisoblanmoqda.

Kiberxavfsizlik deganda, elektron ma'lumotlarning maxfiylikini va buzilish yoki o'g'irlikdan saqlanishini ta'minlash choralari tushuniladi. Bundan tashqari, ushbu qurilmalar va ma'lumotlar noto'g'ri ishlatilmasligiga ishonch hosil qilish uchun foydalaniladi. Kiberxavfsizlik dasturiy ta'minotga ham, qo'shimcha qurilmalarga ham, Internetdagi ma'lumotlarga ham tegishli bo'lib, shaxsiy ma'lumotlardan tortib murakkab davlat tizimlariga qadar himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin [11].

Tushunarli qilib aytganda kiberxavfsizlik, onlayn sozlamalarda elektron ma'lumotni himoya qilish bo'yicha ko'rilgan himoya choralari tushuniladi. Kiberxavfsizlik turli xil himoya choralari qamrab olishi mumkin, shu jumladan shaxs o'g'irliklarini kompyuterlarga yoki



elektron qurilmalarga kirishdan saqlashga yordam beradi. Parolni himoya qilish va diskni shifrlash ham kiberxavfsizlik choralarning turlaridan biridir.

Kiberxavfsizlik – kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati [11].

Kiberxavfsizlik choralari belgilangan, chunki kompyuterda, elektron qurilmada yoki Internetda saqlangan har qanday ma'lumot buzilishi mumkin. Tegishli choralar ko'rilsa, bularning oldini olish mumkin. Dunyo har qachongidan ko'ra kompyuterlarga ko'proq ishonganligi sababli, kiberxavfsizlik muhim ahamiyat kasb etdi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan kiberhujum va kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida quyidagi asosiy talablarni bajarish va ulardan himoyalaniish, ya'ni kiberxavfsizlikni ta'minlashga erishmoq mumkin:

axborot almashish texnik vositalari (kompyuter va h.k.)dan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish;

fuqarolarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish va ularga axborot xavfsizligi asoslarini o'rgatish;

foydalanayotgan dasturiy mahsulotlarning zaifliklarini doimiy sinovdan o'tkazib borish;

imkon darajasida viruslarga qarshi ishonch (litsenziya)li dasturlardan foydalanishni o'rgatish;

litsenziyalangan rasmiy dasturlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

axborot tizimlarini himoyalashda ko'p faktorli autentifikatsiyadan foydalanishni ta'minlash [12];

parollarni belgilashda kuchli parollardan foydalanish amaliyotiga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

muntazam ravishda kompyuter qattiq disk (xard)laridagi ma'lumotlarni shifrlashni tushuntirib borish;

imkon qadar qattiq disklardagi zaruriy materiallarni boshqa ma'lumot saqlovchi vosita (fleshka, xard)larga ko'chirib qo'yish masalalarini eslatib borish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, globallashuv jarayonida dunyo davlatlarida axborot jamiyatini rivojlantirishga talab ortib bormoqda, zamonaviy axborot kommunikatsiyalari tatbiq etilmoqda. Insonlar o'zini texnologiyalarsiz tasavvur qilishi murakkab bo'lgan axborot jamiyatida turli tahdidlar yo'nalishi va shakllarining tobora ortib borishini bashorat qilgan holda har bir davlat, tashkilot va shaxslar tomonidan axborotlarning buzilishi, ma'lumotlarning barbod bo'lishini oldini olish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq. Texnik bazasini himoya qilish, ma'lumotlarni shifrlash, kodlash orqali o'zining xavfsizligini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirilishi, kibertahdid va kiberjinoyatlar domiga tushib qolmaslik maqsadida internetning turli norasmiy ijtimoiy tarmoqlari va mesenjerlaridan bilib bilmay ro'yxatdan o'tmasliklari borasida ogox bo'lishlari lozim bo'ladi. Agar har bir shaxs kibertahdidlardan o'zini himoyalash madaniyatiga amal qilsalar jamiyatda kiberjinoyatlar qurboniga aylanishni oldi olingan bo'lar edi.

Foydalanilgan manbalar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_jamiyati. Murojaat sanasi. 16.05.2023 y.
2. www.ta'lim.uz. Muallif: Boboho'jayeva N. Murojaat sanasi. 16.05.2023 y.
3. Integration of Policies and Regulatory Frameworks for the Convergent ICT Industry in Nigeria, Wole Michael Olatokun (University of Ibadan, Nigeria). Murojaat sanasi. 20.05.2023 y.
4. The Implementation of Modern Information Technologies in Educational Fields, Anatoly A. Aleksandrov (Bauman Moscow State Technical University, Russia), Andrey V. Proletarsky (Bauman Moscow State Technical University, Russia), Konstantin A. Neusypin (Bauman Moscow State Technical University, Russia) and Kai Shen (Beijing Institute of Technology, China). Murojaat sanasi. 20.05.2023 y.
5. Application of Wireless Data Grids for Health Informatics, Omer Mahmood (Charles Darwin University, Australia). Murojaat sanasi. 14.05.2023 y.
6. Behind the Post-Truth World: A Philosophical Perspective on Information and Media Literacy. Daniel Martínez-Ávila (Universidad Carlos III de Madrid, Spain), Mariana Rodrigues Gomes de Mello (Sao Paulo State University, Brazil), Ellen Valotta Elias Borges (Sao Paulo State University, Brazil) and Selma Leticia Capinzaiki Ottonicar (Sao Paulo State University, Brazil). Murojaat sanasi. 5.05.2023 y.
7. Insights Into University-Business Cooperation in the Information Society: A Romanian Project for Higher Education. Lorena Clara Mihăeş (University of Bucharest, Romania) and Manuela Epure (Spiru Haret University, Romania). Murojaat sanasi. 5.05.2023 y.
8. "The Net Result - Report of the National Working Party for Social Inclusion". the IBM Community Development Foundation report, 1997. Murojaat sanasi. 14.05.2023 y.



9. “Что такое информационное общество? Информационное общество и государство”. Murojaat sanasi. 21.05.2023 y.

10. Anorboyev, A.U. Kiberjinoatchilik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari: 12.00.08 – Jinoyat huquqi. Huquqbuzarliklarning oldini olish. Kriminologiya. Jinoyatjroiya huquqi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya ishi / A.U. Anorboyev. -T., 2020. -419 b.

11. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-764-son qonuni “Kiberxavfsizlik to'g'risida”. -T., 2022- yil 15- aprel. -20 b.

12. <https://iiv.uz/news/kiberjinoatchilikka-qarshi-kiberxavfsizlik>. Muallif. A.Iminov. Murojaat sanasi. 21.05.2023 y.

